

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 449 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI.....	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB O'LSHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHI QARISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHI QARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	423
Ismadiyrov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	



YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH

Raimjanova Madina Asrarovna

TDIU professori, i.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish jarayoni ilmiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda yashil iqtisodiyot tushunchasi hamda uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, yashil iqtisodiyot sohasiga investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida yashil iqtisodiyot loyihalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiyalar, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract. This article examines the process of attracting investments to the green economy in the context of Uzbekistan. The study provides a systematic analysis of the concept of the green economy and its economic, environmental, and social significance. In addition, the experience of Uzbekistan and foreign countries is analyzed through a comparative approach, enabling the identification of effective mechanisms for attracting investments into the green economy. Based on the research findings, practical recommendations aimed at supporting the development of green economy projects are proposed.

Keywords: green economy, investments, sustainable development, renewable energy, public-private partnership.

Аннотация. В статье исследуется процесс привлечения инвестиций в зелёную экономику в условиях Республики Узбекистан. В работе проводится системный анализ понятия зелёной экономики, а также её экономической, экологической и социальной значимости. Кроме того, на основе сравнительного анализа изучен опыт Узбекистана и зарубежных стран, что позволило определить эффективные механизмы привлечения инвестиций в сферу зелёной экономики. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на развитие проектов зелёной экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, инвестиции, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, государственно-частное партнёрство.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy rivojlanish hamda ekologik muammolar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda energiya manbalarining barqaror emasligi kabi omillar yashil iqtisodiyotning rivojlanishini obyektiv zaruratga aylantirmoqda.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya tejamkorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat tizimini ifodalaydi [3]. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, avvalo, investitsiyalarni faol jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Investitsiyalar nafaqat ilg'or texnologiyalarni rivojlantirishga, balki ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish hamda yashil ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalar milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va global ekologik majburiyatlarning samarali bajarilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot hamda uning rivojlanishida investitsiyalarning o'rni masalasiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yashil iqtisodiyot tushunchasi Birlashgan Millatlar



Tashkiloti tomonidan konseptual jihatdan asoslab berilgan bo'lib, u ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslarni samarali boshqarish hamda yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot nazariyasi doirasida iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanat masalasi alohida ta'kidlanadi. Xususan, Pearce va Barbier tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi. Shuningdek, Gibbs va O'Neill yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda energiya samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy yo'nalishlardan biri ekanligini asoslab bergan.

Yashil investitsiyalarning ahamiyati nafaqat iqtisodiy foyda bilan, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan ham chambarchas bog'liq. International Finance Corporation hisobotlarida qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamkorligi hamda ekologik toza ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtirishi va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, OECD tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar yashil investitsiyalarni jalb qilish jarayonida davlat siyosati, institutsional qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlarining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy tajribalarda yashil investitsiyalarni jalb etishning turli mexanizmlari shakllangan bo'lib, ular subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq preferensiyalari hamda davlat-xususiy sheriklik modellarini o'z ichiga oladi. Jumladan, Germaniya va Daniya tajribasida qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini rivojlantirishda davlat tomonidan belgilangan moliyaviy rag'batlar muhim rol o'ynagan. Xitoy va Hindistonda esa yashil moliya bozorini rivojlantirish orqali xususiy sektor investitsiyalarini faol jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash maqsadida qator strategik hujjatlar qabul qilingan. Xususan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi" hamda "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturi" mamlakatda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan muhim dasturiy hujjatlar hisoblanadi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar ham yashil investitsiyalarni jalb qilishda davlat siyosati, moliyaviy rag'batlar va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [1–5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiyalarni jalb qilish jarayoni o'zaro uzviy bog'liqlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Xorijiy tajriba hamda O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik va yashil moliya bozorlarini rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlari ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatimizda yashil investitsiyalar hajmini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar va amaliy takliflarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada yashil iqtisodiyot loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish jarayonini ilmiy jihatdan o'rganish maqsadida nazariy va empirik tadqiqot metodlarining majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish jarayonida yashil iqtisodiyot va investitsiyalar masalalariga bag'ishlangan ilmiy manbalar, jumladan, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda strategik hujjatlar tahlil va sintez usullari orqali o'rganildi, mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali yashil investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlari aniqlanib, investitsiya jarayonini konseptual model asosida tizimli tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning empirik qismida O'zbekiston hududida yashil iqtisodiyot loyihalarini amalga oshirayotgan korxonalar hamda moliya institutlari mutaxassislari ishtirokida so'rovnoma va intervyular o'tkazildi. Ushbu usullar investitsiyalarni jalb qilish jarayonida yuzaga keladigan amaliy muammolar va mavjud imkoniyatlarni aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumatining iqtisodiy va ekologik yo'nalishdagi rasmiy hisobotlari, investitsiya dasturlari, moliyaviy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, yashil investitsiyalarning hajmi, asosiy yo'nalishlari va ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Bundan tashqari, yashil investitsiyalarni jalb qilish jarayonining samaradorligini aniqlash va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash maqsadida prognozlash hamda tizimli modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv investitsiyalarni rag'batlantirishning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy foydasini kompleks baholash imkonini berdi. Tadqiqot bir necha bosqichlarda amalga oshirilib, dastlab nazariy manbalarni o'rganish orqali ilmiy asos yaratildi, keyinchalik xorijiy va milliy tajriba tahlil qilindi, empirik ma'lumotlar yig'ildi va ular asosida xulosalar ishlab chiqildi hamda yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Mazkur metodologik yondashuv natijasida O'zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Nazariy va empirik tadqiqot natijalari asosida ishlab



chiqilgan amaliy tavsiyalar mamlakatda yashil iqtisodiyot loyihalarini rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish hamda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLILI VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni so'nggi yillarda izchil sur'atlarda jadallashib bormoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi" hamda "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturi" kabi strategik hujjatlar mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, yashil iqtisodiyot sohasiga investitsiyalarni faol jalb etishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan muhim institutsional asos vazifasini bajarmoqda.

O'tkazilgan so'rovnoma va intervyular natijalariga asoslangan empirik tahlil korxonalar tomonidan bir qator muhim holatlar qayd etilishini ko'rsatdi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari hamda ekologik toza ishlab chiqarish yo'nalishlari investitsiyalarni eng ko'p jalb qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda. Yashil texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq dastlabki xarajatlar nisbatan yuqori bo'lishiga qaramasdan, ularning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligi va barqaror moliyaviy foydasi yuqori ekanligi ta'kidlanmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va subsidiyalar yashil loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishda muhim rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Empirik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni jalb qilishda bir nechta mexanizmlar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi loyihalari uchun qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari va subsidiyalar investitsiyalar hajmini taxminan 15–20% ga oshirishga xizmat qilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi infratuzilma va ekologik loyihalarda xususiy investorlarni faol jalb etish imkonini yaratib, investitsiya oqimini kengaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, Jahon banki va Osiyo Taraqqiyot Banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida ajratilayotgan grant va kredit resurslari yashil loyihalarni moliyalashtirish hajmini sezilarli darajada oshirmoqda. Yashil moliya bozorini rivojlantirish, jumladan, korporativ yashil obligatsiyalar va ekologik sertifikatlar joriy etilishi orqali xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda [4].

So'rovnoma va intervyular natijalari asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning qariyb 70% yashil texnologiyalarni joriy etishni iqtisodiy jihatdan foydali deb hisoblaydi, 60% esa investitsiyalarni jalb qilish jarayonida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalarni keng jalb etish yo'lidagi asosiy to'siqlar sifatida moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda texnologik bilim va malakaning yetarli emasligi qayd etiladi. Statistik ma'lumotlar tahlili qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi so'nggi besh yil davomida yiliga o'rtacha 12–15% sur'at bilan o'sib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya O'zbekistonning global yashil iqtisodiyot standartlariga bosqichma-bosqich yaqinlashayotganini hamda olib borilayotgan islohotlarning ijobiy samarasini tasdiqlaydi (1-jadval va 1-diagramma).

1-jadval. So'rovnoma shakli: Yashil investitsiyalar bo'yicha korxona mutaxassislari so'rovi

1. Korxona faoliyati sohasi:
 - a) Energiya samaradorligi
 - b) Qayta tiklanuvchi energiya
 - c) Ekologik toza ishlab chiqarish
 - d) Boshqa: ____
2. Sizning fikringizcha, yashil texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy foydalimi?
 - a) Ha
 - b) Yo'q
3. Yashil investitsiyalarni jalb qilishda asosiy to'siqlar nimadan iborat?
 - a) Moliyaviy resurslar yetishmasligi
 - b) Texnologik bilimlar kamligi
 - c) Qonunchilikning yetarli emasligi
 - d) Boshqa: ____
4. Investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish uchun qanday mexanizmlardan foydalanish samarali?
 - a) Soliq imtiyozlari
 - b) Subsidiyalar
 - c) Davlat-xususiy sheriklik
 - d) Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik
 - e) Boshqa: ____

Qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga kiritilgan investitsiyalar o'sishi (2018–2023)




Diagramma-1. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga kiritilgan investitsiyalar o'sishi (2018–2023-yillar, mln. AQSh dollari)

Shunday qilib, 1-diagrammada 2018–2023-yillar davomida qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'sish dinamikasi aks ettirilgan. Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda ushbu soha uchun kiritilgan investitsiyalar hajmi 50 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda mazkur ko'rsatkich 56 mln AQSh dollariga yetgan. 2020-yilda investitsiyalar hajmi 62 mln AQSh dollarini, 2021-yilda esa 70 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Keyingi yillarda investitsiyalar hajmining barqaror o'sish tendensiyasi davom etib, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 78 mln AQSh dollariga, 2023-yilda esa 87 mln AQSh dollariga yetgan. Mazkur o'sish qayta tiklanuvchi energiya sohasiga bo'lgan investitsion qiziqishning izchil ortib borayotganini, shuningdek, yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan institutsional va iqtisodiy islohotlarning ijobiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi (2-jadval).

2-jadval. Yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va samaradorligi

Mexanizm	Ta'sir ko'rsatkich	Izoh
Soliq imtiyozlari	15–20% investitsiya o'sishi	Energiya samaradorligi loyihalarida eng samarali
Subsidiyalar	10–15%	Davlat qo'llab-quvvatlashi orqali xususiy sektor rag'batlantiriladi
Davlat-xususiy sheriklik	12–18%	Infratuzilma va loyihalarda xususiy investitsiya oqimi oshadi
Xalqaro moliya institutlari	8–12%	Grant va kreditlar orqali investitsiyalarni jalb qilish

Shunday qilib, empirik va statistik tahlil natijalariga asoslanib quyidagi umumiy xulosalarga kelindi. Yashil iqtisodiyot loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish jarayonida davlat siyosati hamda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, ushbu omillar investitsiya faolligini oshirishda asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususiy sektorning yashil loyihalardagi ishtirokini kengaytirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda yashil moliya vositalaridan samarali foydalanishni kengaytirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirish jarayonida texnologik bilim va kompetensiyalarni oshirish, soha xodimlarining malakasini tizimli ravishda rivojlantirish yashil loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi. Xorijiy ilg'or tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston



sharoitida yashil obligatsiyalar va ekologik sertifikatlar kabi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va rivojlantirish orqali investitsiya oqimini sezilarli darajada kengaytirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, mamlakatda yashil investitsiyalar hajmini yanada oshirish va ularning samaradorligini kuchaytirish maqsadida qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish masalasi kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotning nazariy jihatdan iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi iqtisodiy faoliyat shakli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tabiiy resurslarni oqilona boshqarishni o'z ichiga oladi.

Empirik tadqiqotlar natijalari O'zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni jalb qilishda soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik eng samarali vositalar hisoblanishini tasdiqlaydi. Xorijiy tajriba tahlili yashil obligatsiyalar, ekologik sertifikatlar va investitsiyalarni moliyalashtirishning boshqa innovatsion mexanizmlaridan foydalanish investitsiya jarayonlarini faollashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni kengaytirish uchun moliyaviy rag'batlantirish choralari kuchaytirish, soha xodimlarining malakasini oshirish hamda zamonaviy texnologik bilim va kompetensiyalarni rivojlantirish zarur. Natijada, yashil iqtisodiyot loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik muvozanatni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, davlat siyosati va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik investitsiya oqimini yanada kengaytirish imkonini beradi hamda yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдувалиева З., Нурмухамедова Б. (2025). Зелёная экономика и устойчивые инвестиции: тенденции и перспективы. *Green Economy and Development*, 3(12). <https://doi.org/10.5281/zenodo.18068924>
2. Kodirova Sh. M. (2025). O'zbekistonning barqaror rivojlanishida "yashil iqtisodiyot"ga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari. *XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI vek: Voprosy nauki i obrazovaniya)*, 1, 352–369. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15342969>
3. Gibbs, D., & O'Neill, K. (2025). *Sustainable development and green growth: International perspectives*. Routledge.
4. OECD. (2025). *Investing in climate, investing in growth*. OECD Publishing.
5. UNEP. (2025). *Green economy and sustainable investments*. United Nations Environment Programme.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100